

ONA VA BOLA SALOMATLIGIDA HAMSHIRANING O'RNI



Do'stmurotova Mayramxon Tojixo'jayevna
Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
Jamoada hamshiralik ishi fani o'qituvchisi.

Sog'lom ona va bola haqida Prezidentimiz bunday deydilar: "Qizlarimiz timsolida biz avvalambor bo'lg'usi onalarni, xalqimiz, millatimizning umidi va tayanchi hisoblangan kelajak avlodni dunyoga keltirib, voyaga yetkazadigan naslimiz davomchilarini ko'ramiz. Qiz bola sog'lom va baxtli bo'lsa, u quradigan oila ham, uning mevasi bo'lmish bola ham sog'lom va baxtli bo'ladi. Oila sog'lom va baxtli bo'lsa, butun jamiyat baxtli va farovon bo'ladi. Buni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur".



So'nggi besh yil davomida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat onalik va bolalikni tizimli ravishda muhofaza qilish imkonini yaratdi, natijada onalar va go'daklar o'limining kamayishiga erishildi. Shu bilan birga, olis hududlarda tibbiy yordamni maqsadli yo'naltirish tizimini yuqori darajada tashkil etish, onalar va bolalarga

ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatning samaradorligini oshirish, ambulator yordamni yanada yaxshilash, shoshilinch va ixtisoslashgan tibbiy yordamni rivojlantirish, tibbiy genetika hamda zamonaviy skrining dasturlarini joriy etish talab etilmoqda.

Homilador ayollar va 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordamning sifati va ko'lamini yaxshilash maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligi va UNICEF birgalikda uylarga tashrif buyurishning universal progressiv modelini ishlab chiqdilar. Ushbu yangi yondashuv bolalarning o'sishi va rivojlanishini optimallashtirishga, homiladorlik va tug'ruqdan keyingi davrda ayollarga g'amxo'rlik qilishni yaxshilashga qaratilgan.

Patronaj xizmatining yangi universal progressiv modeli haqida bilim olish uchun sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari Toshkentda bo'lib o'tgan milliy darajadagi yig'ilishida qatnashdilar. Vazirlikning hududlardagi sog'liqni saqlash boshqarmalarining rahbarlari, barcha viloyatlarning bosh hamshiralari, shuningdek, ilmiy doiralar vakillari onalar va bolalarda xavf omillarini aniqlash bo'yicha amaliy tavsiyalar bo'yicha ko'rsatmalar bilan tanishib, maslahat olishdi, boshlang'ich tizimda patronaj xizmatining yangi modelini qanday tatbiq etishni o'rganishdi.



Onalar va bolalar muhofazasi - onalar va bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash, sog'lom, jismonan va aqlan barkamol bolalarni tarbiyalashga qaratilgan davlat va ijtimoiy-tibbiy tadbirlar tizimi. O'zbekiston Respublikasida bu tizim ayollar, homiladorlar va emizikli onalar mehnatini muhofaza qilish qonunchiligi, onalar va bolalarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, shuningdek, akusherlik-ginekologiya va pediatriya yordamini ko'rsatadigan maxsus davolashprofilaktika muassasalari tarmoqlarini yaratishga asoslangan. Mamlakat mustaqillikka erishganidan so'ng onalar va bolalarga qaratilgan keng qamrovli choratadbirlar ko'zda tutilgan dasturlar ishlab chiqilgan.

1998-yildan Toshkentda “Oila” ilmiy-amaliy markazi faoliyat ko‘rsata boshladi. Bu markazda O‘zbekistonda oilani shakllantirish va demografik rivojlantirishga oid muammolar yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Davlat tomonidan yosh bolali onalar ish soatlari cheklanadi, ularga to‘liqsiz ish kuni, to‘liqsiz ish haftasi, shuningdek, zaruriyatdan kelib chiqib o‘zlariga qulay soatlarda yoki uyda ishlash imkoniyatlari beriladi.



Ayollar maslahatxonasi o‘z hududidagi poliklinika, homiladorlarni sog‘lomlashtirish muassasalari, „Ona va bola skrining“ markazi va perinatal markazlar, tibbiy-genetik, shuningdek, „Nikoh va oila“ maslahatxonalari, oilaviy va bolalar poliklinikalari, ko‘p tarmokli kasalxonalarning ixtisoslashtirilgan bo‘limlari bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat ko‘rsatadi.

O. va boshqam. tizimida davolash-profilaktika yordamining bir nechta bosqichlari mavjud: 1-bosqich – yoshlarni jinsiy masalalarga tayyorlash, sog‘lom oila qurish, jinsiy hayot genetikasi va jinsiy yo‘l orqali yuqadigan ka-salliklardan boxabar etish bo‘yicha yuqori malakali tibbiy yordam ko‘rsatishni „Oila va nikoh“ ilmiy maslahatxonalari amalga oshiradi. 2-bosqich – homilani antinatal muhofazalash kompleks choratadbirlarini amalga oshirish ayollar maslahatxonasi, tug‘ruqxona komplekslari va boshqa faoliyatiga kiradi. 3-bosqich – tug‘ishni bekamu-ko‘st olib borish uchun homilani institutranatal muxrfazalash – bu tug‘ruqxonalar zimmasiga yuklatilgan. 4-bosqich – yangi tug‘ilgan chaqaloq sog‘lig‘ini himoya etish, uni emizish, umumiy holati, fiziologik rivojlanishini nazorat qilish va boshqa tug‘ruqxonalarning chaqalokdar bo‘limida ko‘zdan kechirib boriladi.



5-bosqich – maktabgacha yoshdagi bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish. 6-bosqich – maktab yoshidagi bolalar sog‘lig‘i himoya qilish. Bularning hammasi [O‘zbekiston Respublikasi](#) da yo‘lga qo‘yilgan yagona O. va boshqam. tizimida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan Akusherlik va ginekologiya instituti, Pediatriya ilmiy tadqiqot instituti, „Ona va bola“ kasalxonasi va markazlari, shuningdek, shu sohaga oid qator davolash-profilaktika muassasalarida O. va boshqam. bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib boriladi

Butun dunyoda bolalar himoyasi, parvarishiga alohida e'tibor qaratilib, 1-iyun— Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni katta shodiyona sifatida nishonlanadi. tibbiyot hamshiralari kasallikning xavfli belgilarini vaqtida aniqlash, ota-onalarga bolani parvarishlash bo'yicha foydali maslahatlar berish, ijobiy amaliyotni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Bola salomatligi har tomonlama muhim chunki kelajak yoshlar qo‘lida. Ularning salomatligi tarbiyasi muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri tibbiy ko‘rik vaqtida gigiyenaga e‘tibor berishmayotganligi tibbiyot xodimlari tomonidan yozib berilayotgan dorilarga e‘tibor bermasliklari sababli qancha yosh avlod vafot etmoqda. Bunday asosiy muammo dori tarkibini onalar o‘qimasligi shifokor tibbiy qog‘ozidagi miqdordan ortiqcha berib yuborish ham bu bola salomatligida jiddiy ta’sir ko‘rsatib ularda tuzalib bo‘lmas yoki boshqa tana a‘zolarining zaiflashishiga sabab bo‘lmoqda. Bola salomatligini ta'minlashda sog'lom ovqatlanish muhim o‘rin tutadi.

Bu, ayniqsa, bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida juda muhim. Shu bois, Sog'liqni saqlash vazirligi hamkorligida oziqlanish bo'yicha milliy tadqiqot o'tkazildi. Unda so'nggi yillarda ayollar va bolalarning ovqatlanishida erishilgan yutuqlar

ko'rsatib berildi. Masalan, bolaning o'z yoshiga nisbatan bo'yi me'yordan past bo'lishi holatlarini kamaytirish borasida O'zbekiston sezilarli yutuqlarga erishdi. Go'daklarni ko'krak suti bilan oziqlantirishni erta boshlash amaliyotini joriy qilish bo'yicha ham yaxshi natijalar qayd etilmoqda. Biroq tadqiqot davomida bolalar va reproduktiv yoshdagi ayollarda mikroelementlar etishmovchiligi hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar sirasiga kirishi aniqlandi. Ayollar va o'smir qizlarni sog'lomlashtirish va bo'lajak onalarning reproduktiv salomatligini yaxshilash, homiladorlarga tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirish, onalar salomatligini mustahkamlash maqsadida birlamchi tibbiysanitariya muassasalarida "Ayollar maslahatxona"lari, qizlar salomatligi bo'limlari tashkil etilgan. Aholini profilaktik ko'rik, tizimli patronaj bilan qamrab olish va reproduktiv salomatligini mustahkamlash yuzasidan ko'rilgan choralar o'z natijasini bermoqda. Shuningdek, ginekologik kasalliklarni zamonaviy xalqaro talablarga mos tashxislash, davolash va reabilitatsiya usullari amaliyotga keng tatbiq etilmoqda. Onalik va bolalikni muhofaza qilishga yo'naltirilgan markazlardagi malakali mutaxassislarining joylarga chiqib homiladorlar, reproduktiv yoshdagi ayollarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishi, mahorat darslari va o'quv-seminarlari tashkil etishi yo'lga qo'yilgan. Sog'lom ona va bola shiori har bir yurtning, millatning, xalqning asosiy tashvishlaridan biri bo'lmog'i lozim. Chunki kelajak avlod har bir davlat, yurt, el, xalqning kelajagini belgilaydigan avloddir. Ular ana shu xalq, yurt, davlat va elning umid g'unchalaridir. Bu yorug' jahonda neki jonzot bo'lsa, barchasi bolasi uchun qayg'uradi, hatto og'zida don tashib boqadi, himoyalab voyaga yetkazadi. Butun mavjudot orasida eng ulug', eng mukarram etib yaratilgan inson farzandi, uning baxti, kelajagi uchun butun borlig'ini, kerak bo'lsa butun umrini bag'ishlaydi. Har bir ota-ona o'z farzandining ham ruhiy-ma'naviy jihatdan sog'lom, barkamol bo'lishi uchun, ham jismoniy jihatdan chiniqqan baquvvat, turli kasallik va illatlardan sog'-salomat bo'lib ulg'ayishi uchun harakat qilmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tinch va farovon Hayot–Bolalarga neg yaxshi tuhfa. <https://yuz.uz/uz/news/tinchva-farovon-hayot--bolalarga-eng-yaxshi-tuhfa>
2. Ona va bola salomatligi. <https://yuz.uz/uz/news/tinch-va-farovon-hayot--bolalarga-eng-yaxshi-tuhfa> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Oqilov O. Sog'lom turmush - uzoq umr poydevori. T. 1980-y. 56 b.[2]
4. Aminjonova, CH. A., & Mavlyanova, D. A. (2020). Metodika prepodavaniya predmeta "biologiya" v sisteme vysshego meditsinskogo obrazovaniya. In metodologicheskie i organizatsionnye podxody v psixologii i pedagogike